



Received: October 17, 2023
Accepted: December 18, 2023
Available online: December 25, 2023

Sojida Samandarova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

Dilnoza Ruzmatova

Filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

TOMAS HARRISNING PSIXOLOGIK TRILLERLARIDA BADIY ZAMON VA MAKON KOMPOZITSION UNSURLAR SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijodiga taqrizchilardan tortib adiblarga ham tanqid, ham maqto'v bildirib kelishgan amerikalik psixologik triller yozuvchi Tomas Harrisning "Gannibal Lekter" romanlar turkumida zamon va makon kompozitsion unsurlaridan foydalangan holda voqeyiy va psixologik jihatdan teran hamda qiziqarli rivoya usulini yaratganligi tahlilga tortildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yozuvchining asarlaridagi qahramonlar badiiy psixologizmini ochib berishda makon va zamondan qay tarzda foydalanganini tadqiq etish, shuningdek, M.Baxtinning xronotop nazariyasiga asoslangan holda psixologik trillerlardagi tarixiy xronotoplarning umumiy badiiy muhitga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda ilmiy tadqiqotning sifat va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi, ya'ni T.Harrisning to'rtta romani bo'yicha tahlil olib borilib, asarlardagi xronotop qo'llanilishi bilan bog'liq motivlar va sabablarga chuqur e'tibor qaratildi. Qahramonlarning o'zaro ta'siri va psixologik dinamikasini shakllantiruvchi zamon va makon birliklarini aniqlash, turli xil shart-sharoitlarda personajlarning psixologizmini o'rganish va xronotoplardagi vaqtinchalik siljishlar rivoya qurilishiga qay darajada hissa qo'shishini o'rganish tadqiqot ishi orqali

Sojida Samandarova

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: sojida.samandar0791@gmail.com

Dilnoza Ruzmatova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dishemu2017@gmail.com

TIME AND SPACE AS COMPOSITIONAL ELEMENTS IN THOMAS HARRIS'S PSYCHOLOGICAL THRILLERS

ABSTRACT

This research article delves into the writing techniques used by Thomas Harris, a renowned American psychological thriller writer. Despite receiving both constructive and unconstructive criticism from reviewers and authors alike, T.Harris has managed to create suspenseful and psychologically rich narratives in his Hannibal Lecter novel series. The main objective of this research is to analyze how T.Harris manipulates time units and geographical locations within his writing to enhance the psychological depth of his characters. Additionally, the research aims to investigate the impact of historical chronotopes on the overall atmosphere of his thrillers, drawing upon M.Bakhtin's "chronotope" theory.

This research article aims to achieve certain objectives by using a qualitative analysis approach. The analysis will focus on T.Harris's four thriller novels by closely examining the motifs and patterns related to M.Bakhtin's chronotopes. The study will include identifying the temporal and spatial configurations that shape character interactions and psychological dynamics, examining character psychologism within different settings, and exploring how temporal shifts in chronotopes contribute to the narrative structure.

The study shows that the concepts of time and space are crucial in shaping the psychological

belgilangan vazifalar sirasiga kiritildi.

Qoʻlga kiritilgan natijalar T.Harris romanlarining psixologik manzarasini shakllantirishda zamon va makonning ahamiyatini toʻlaqonli ochib beradi. Aytish mumkinki, Harrisning oʻz trillerlaridagi oʻtkir intrigani kuchaytirish, psixologik kayfiyatni uygʻotish va qahramon shaxsiyatini teran aks ettirishda zamon va makondan mohirona foydalanishi uning ijodini boshqa detektiv va triller yozuvchilardan ajratib turuvchi asosiy omillardandir. Bundan tashqari, maqolada Harrisning rivoya yoʻsinidagi zamon, makon va qahramon psixologizmining oʻzaro uygʻunlik kasb etishiga ham urgʻu qaratildi. Ushbu natijalar asosida zamon va makon “Gannibal Lekter” romanlari turkumining ajralmas kompozitsion unsurlarini tashkil etadi hamda qiziqarli syujet yaratishda kuchli vositalar sifatida xizmat qiladi. T.Harris qalamiga mansub psixologik trillerlarda zamon hamda makon tushunchalarining ahamiyatini anglab yetish adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar uchun boshqa psixologik triller yozuvchilarning ijodini xronotopik tuzilmalar asosida tahlil etish boʻyicha zaruriy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Kalit soʻzlar: Tomas Harris, Gannibal Lekter, zamon, makon, psixologik triller, profayling, xronotop, mikrozon, makrozon, mikro olam, makro olam.

KIRISH

Inson ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanar ekan, uning hayoti zamon va makondan tashqarida kechishi mumkin emas. Adabiyot esa soʻz sanʼati sifatida ijtimoiy munosabatlarning badiiy inʼikosi oʻlaroq dunyoga keladi. Falsafa fanining asosiy kategoriyalari deya eʼtirof etiluvchi zamon va makon tushunchalari badiiy adabiyotga ham aloqadorlik kasb etadi. Vaholanki, adabiyot hamda falsafa muammolarini akslantiruvchi zamon va makonning bir nechta oʻxshash va farqli jihatlar borki, ularga alohida taʼrif berib oʻtish maqsadga muvofiqdir. Xususan, falsafa fani uchun makon va zamon ijtimoiy voqelikka daxl qiluvchi tushunchalar deya hisoblansa, adabiyotshunoslik va estetika fanlarining masalalari tarkibiga kiruvchi makon va zamon badiiy voqelikka aloqador tushunchalardir [Holquist, 2010; 25]. Ikkala sohada ham zamon va makon bir-birini toʻldiruvchi hodisalar sifatida talqin etiladi hamda ularni bir-biridan ayro tarzda tasvir va tadqiq etish ilojisizdir. Makon va zamon oʻrtasidagi chambarchas bogʻliqlikni teran anglagan tadqiqotchi olim Mixail Baxtin ilk bor ushbu ikki tushunchani birlashtiruvchi “xronotop” (grekcha “chronos” – zamon, “topos” – makon) istilohini qoʻllaydi [Baxtin, 1986; 121]. Demak, xronotop istilohining adabiyotshunoslikka olib kirilishi M.Baxtin nomi bilan bogʻliq

landscape of T.Harris’s novels. Harris strategically uses these elements to heighten suspense, evoke mood, and deepen character development, setting his work apart from other detective or thriller writers. The research also emphasizes the interconnection between time, space, and psychological themes in Harris’s storytelling. As a result, it concludes that they are essential compositional elements in T.Harris’s Hannibal Lecter novel series, serving as powerful tools for crafting immersive and captivating narration. Understanding the role of space and time in T.Harris’s works provides valuable insights for researchers into the ways authors use setting and temporal structure to enhance the psychological impact of their stories.

Key words: Thomas Harris, Hannibal Lecter, time, space, psychological thriller, profiling, chronotope, microtime, macrotime, microspace, macrospace.

[Bemong et al., 2010; 4]. Mazkur atama dastlab matematik tabiatshunoslik sohasida qo'llanilgan bo'lib, Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi asosida fanga olib kirilgan hamda asoslab berilgan [Baxtin, 2015; 43-44]. Badiiy adabiyotga esa u makon va zamonning ajralmasligini namoyish etish maqsadi o'laroq kirib kelgan. M.Baxtin badiiy olamdagi zamon va makonni xronotopning ikki tomoni sifatida baholagan bo'lsa, bizningcha, zamoniy va makoniy belgilar bir butunlikdir. Asarda vaqtni to'la-to'kis ifodalashning iloji yo'qligi bois u zichlashgan, qisqargan badiiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Xronotop mavzusini tadqiq etgan boshqa bir adabiyotshunos olim N.Gey badiiy asarni obrazlar ritmining zamon-makonda amalga oshiradigan qaydi, deb atash asnosida – "Obraz, albatta, shunday ma'noda berilganki, uning istalgan har qanday mazmuni kim bilandir bog'langan, qayerdadir va qachonlardir sodir bo'lganligini chamalaydi. Bu yozuvchi uchun zarur bo'lgan uch boshlang'ich miqdor – badiiy olamning uch o'lchovidir. Mazkur o'zgarmas son-miqdorlarsiz obraz o'zini namoyon qila olmaydi", deya ta'kidlaydi [Gey, 1967; 239]. Uning qarashi orqali obrazning shakllanishida kontekst ustuvorlikka ega ekanligini, obrazlar o'zlari mansub bo'lgan muhit, kechinmalar va davr silsilasining mahsuli bo'lishini anglash mumkin. Bizningcha ham, uch o'lchovli badiiy olamsiz obrazlarning to'laqonli qiyofa kasb etishiga erishib bo'lmaydi. Zamon va makon badiiy syujetning tarkibiy qismi yoki unsurlaridan biri emas, balki uning omili, hayotiyiligi va haqqoniyligi manbai hisoblanadi. Makon va zamon syujetga o'z muhrini bosadi, uni jonlantiradi, ta'sirchanligini oshirib, mazmunini boyitadi [To'rayeva, 2019; 84]. Aynan shu ikki omil obrazlarning mukammal ko'rinishga ega bo'lishida, voqea-hodisalarning yanada ishonarli va ta'sirli chiqishida o'zgacha o'ringa ega. Har qanday nasriy-badiiy asar voqealari ma'lum bir makon va zamonda sodir bo'ladi. Shu voqelik pafosiga mos xronotopni adibning o'zi tanlaydi yoki o'z poetik tafakkuri orqali yaratib oladi. Syujet voqealari real-tarixiy, fantastik-xayoliy yoki mavhumot zamon va makonda yuz berishi mumkin. Makon va zamon tushunchasi umum matndan ajralmagan holda ko'proq badiiy asarning tashkillanishi, syujet qurilishi va dinamikasiga tegishli bo'ladi [Karim, 2016; 73]. Zamon va makonning asardagi uyg'unligi juda muhimdir, chunki shu uyg'unlik asosida asar tuzilishi, voqealar rivoji va dinamikasi tashkil topadi, joy va davr qahramonning xatti-harakatlari, hodisalarga munosabati va umumiy syujetga ta'sir qiladi, ularning tasvir yo'sini badiiy muhitni yaratib, asarning teran mazmun kasb etishida alohida o'rin tutadi. Muammoga vaqt va zamon birliklari kontekstida yondashgan holda fikrimizni M.Umarova ilgari surgan nazariya bilan asoslashni lozim topdik: "Badiiy vaqt nisbatan keng adabiy hodisa bo'lib, syujetdan tashqari kompozitsion voqealar bayoniga ketgan davrni ham o'z ichiga oladi" [Umarova, 2011; 14]. Demak, bu va boshqa nazariy mulohazalar orqali xulosa qilishimiz mumkinki, zamon va makon tushunchalari badiiy asar mazmunini va syujetini tashkil etuvchi asosiy vositalar sifatida gavdalanadi.

Psixologik triller janrida yaratilayotgan asarlarga nisbatan ehtiyoj, ayniqsa, so'nggi yillarda orta boshlaganligi ushbu yangi janr namunalarining zamon va makon kategoriyasi tamoyillari asosida jahon va O'zbekiston miqyosida chuqurroq ilmiy-amaliy tadqiq etilishi zaruratini paydo qiladi. Ham jahon, ham respublikamiz

adabiyotshunos olimlari detektiv va gotik uslubdagi romanlardagi qahramonlarning ruhiyati to'g'risida tadqiqotlar olib borishgan. Lekin shu paytgacha "Gannibal Lekter" tetralogiyasi misolida badiiy makon va zamonning qahramonlar orqali aks ettirilishi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borilmagan. XX asrning oxiri-XXI asr boshlarida adabiyotshunoslikdagi boshqa masalalar singari badiiy makonlar va zamonlarning psixologik tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy asarlar yaratila boshlandi. Shu ma'noda T.Harrisning ijodi ham adabiyotshunoslarni o'ziga jalb etib kelmoqda va hech bir romani e'tibordan chetda qolgan emas. Britaniyaning Nottingem universiteti professori Piter Messent [Messent, 2006], Portsmut universiteti professori Kristofer Pittardlar tomonidan e'lon qilingan bir qator ilmiy maqolalar va esselarda [Pittard, 2009; 61; 2010; 457; 2012] T.Harris asarlaridagi qahramonlar psixologiyasida xronotop tadqiqi alohida e'tiborga olingan.

Bizning fikrimizcha, xronotopning badiiy asarda bajaruvchi asosiy vazifalari qatoriga uning syujetni yaratish, janrlarni xillarga ajratish, hamda qahramon obrazini ifoda etishni kiritish mumkin. Shunga monand ravishda badiiy makon ikki qatlamdan iborat bo'ladi, deya faraz qilsak bo'ladi: 1) kundalik hayot yoki real hayot; 2) mo'jizaviy yoki sehrli makon. Tahlilga tortilgan psixologik trillerda esa ikkala qatlamning ham faol ishtiroki ko'zga tashlanadi: voqealar real hayotda bo'lib o'tadi va jinoyatchi-shizofrenik shaxsiyati ichidagi faqat o'zining xayolida yaratgan makon o'tmish xotiralari bilan bog'liqlikda bolalikdagi psixologik travmalar yuzaga keltirgan makonga aylanadi. Bunga misol qilib tetralogiyaning bosh qahramonlari Gannibal va Klerisning tushlarini keltirsak bo'ladi. Odatda an'anaviy romanlarda bolalik jannatsimon xronotop kontekstida ta'riflanib (uy, oila), qahramon o'zining badiiy umri davomida shu jannatga qaytishga intiladi. Vaholanki, psixologik trillerda buning aksi kuzatiladi.

TADQIQOT METODLARI

Yozuvchi o'z badiiy niyatini amalga oshirish yo'lida makon va zamonning o'zaro uyg'unlikdagi ishtirokidani qay darajada mohirlik bilan foydalanganligini ochib berish uchun ushbu maqolada struktural, tarixiy-madaniy, tasniflash va tavsiflash tahlil usullari qo'llanilgan.

Struktural tahlil romanlardagi voqea-hodisalarning rivoyaviy yo'sinida zamon va makonning qanday ta'sirga ega bo'lganligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois syujet chiziqlari, xronologik vaqt birliklarining tasviriy ifodasi hamda makon tasvirlarini o'z ichiga olgan narrativ struktura tahlil qilindi.

Zamon va makon tasvirlarining talqin etilishida trillerlar tarixiy-madaniy kontekstini tarixiy voqea-hodisalar, ijtimoiy normalar hamda madaniy o'ziga xosliklar singari omillar nuqtai nazaridan yoritib o'tish muayyan zamon va makondagi qahramonlar holati va xatti-harakatlarini tahlilga tortishda qo'l keldi.

Psixologik trillerlardagi zamon va makonga xos turli unsurlarga tasnifiy yo'sinda baho berish orqali ko'zdan kechirish ularning asarlarda bajargan vazifalarini tizimlashtirishda muhim o'rin tutdi. Asarlardagi zamon va makonni tasvir etishda foydalanilgan badiiy-tasviriy ifodalarining ramziy va mavzuviy ahamiyatiga izoh

berishda esa tavsifiy tahlil usuliga tayanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

M.Baxtin qadimgi grek sarguzasht romanlaridan olingan badiiy matn namunalarini xronotop nuqtayi nazaridan tadqiq ham etgan [Rata, 2016; 102]. U xronotopning asardagi ahamiyati borasida shunday yozadi: “Badiiy xronotop qat’iy janriy mohiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko’rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma’no kasb etadi” [Baxtin, 1986; 122]. Voqealar maromining behad qiziqarli kechishi zaruriyati xronotopning turli darajalari ifodasiga imkon yaratgan, chunki sarguzasht asar tabiati zamon va makon bilan bog’liq turli dramatik holatlarni taqozo etadi. Grek sarguzasht romanlarida qahramonlarning goh kunduzi, goh kechasi, goh uyda, goh safar-u jang-jadallarda, goh zindonda, goh quvg’inda va nihoyat orzulari ushalgan baxtiyor manzilda kechgan damlari, soat-u haftalari, yillari o’z aksini topgan [Kaschmitter, 1999; 27]. Qadimgi grek sarguzasht romanlariga xos bu xususiyat bugungi kundagi zamonaviy sarguzasht adabiyoti, uning alohida bir ko’rinishida sifatida taraqqiy etib borayotgan triller adabiyoti uchun ham begona emas [Radding, 2015; 862]. Shu ma’noda psixologik trillerlar syujetining xronotopga munosabati borasida asosli xulosalar chiqarish mumkin.

Badiiy asar syujetining to’laqonli yuzaga chiqishida xronotopning ahamiyati va o’rni beqiyosdir. Bu tarixiy sanalar va joylar tilga olingan romanlarda ayniqsa ko’proq ko’zga tashlanadi, chunki yozuvchi sana va joy nomlarini tilga olish orqali ma’lum ma’noda tarixga nazar solib, o’z badiiyati orqali tarixiy haqiqatga zid kelmaydigan tarzda voqealarga boshqatdan ruh bag’ishlaydi. Nosirov badiiyat qonunlari tarixni inson taqdiri, ruhiyati, uning moziydagi o’rni, umuman aytganda, qahramonning zamon va makonga munosabati orqali ma’lum davrdagi tarixiy sharoitni, obrazlarning xarakterini, ichki dunyolarini yoritishlari zarurligini qayd etadi. Tarixiy hujjatlar esa ushbu vazifani bekam-u ko’sat etishda eng muhim manba rolini o’ynaydi [Nosirov, 1999; 113]. Tahlil uchun olingan romanlarda real xronotop voqea-hodisalarning tarixiy shart-sharoitda ro’y berganligini hamda ishonarli ekanligini ifoda etadi: “Xronotop badiiy asarning janrini ko’rsatuvchi shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida badiiy makon va badiiy zamonning ko’lami, ularning tarixiy jihatdan aniqligi, badiiy va estetik tomonlama asosga egaligi, syujetga uygunligini, qahramonlarning ichki ruhiy olamining bepoyonligi, o’y-xayollar va his-tuyg’ular oqimi, xatti-harakatlar yo’nalishi orqali asarning romanlik maqomini ko’rsatadi” [To’rayeva, 2018; 2022]. T.Harrisning to’rtta romani bir-biri bilan bog’liq bo’lsa-da, dastlabki uchta roman o’rtasida uzviy ketma-ketlik kuzatiladi va mantiqiy yakun beriladi, lekin eng oxirgi bo’lib nashr etilgan to’rtinchi roman, ya’ni “Gannibal: yuksalish”da birinchi roman – “Qizil ajdarho” voqealarigacha bo’lgan davr Gannibal Lekterning hayot yo’li nuqtayi nazaridan yoritiladi va umumiy xronologik yaxlitlik shu romanga kelganda buziladi. Aytish joizki, alohida olingan romandagi ichki xronologik yaxlitlik buzilmasa-

da, retrospeksiya va prospeksiya usullari yordamida birdan o'tmishga qaytish va kelajakka yo'naltirilish holatlari barchasida kuzatiladi. To'rtta romanda ham voqea-hodisalar tizimida dialoglar va hikoyaviy yo'sin orqali syujet shakllanib boradi, lekin qahramonlarning o'tmish xotiralari, ayni damdagi voqealarga nisbatan ichki, xayoliy munosabati, fikri va murojaati ham salmoqli o'rin egallaydi. T.Harrisning "Qizil ajdarho" romanidagi markaziy voqealar 1970-yillarning oxirida, taxminan bir oy ichida yuz bersa, "Qo'zichoqlar sukunati"dagi hodisalar 1983-1984-yillar oralig'ida bo'lib o'tadi. Ikki roman voqealari orasida qariyb olti yillik oraliq mavjud. Uchinchi roman muqaddimasida esa yozuvchining o'zi "Qo'zichoqlar sukunati" romani bilan mazkur roman voqealarigacha bo'lgan vaqt oralig'iga quyidagicha aniqlik kiritib ketadi: "Gannibal Lekter qamoqdan qochib ketganidan, Kleris Starling u bilan qattiq qo'riqlanuvchi aqli noraso jinoyatchilar saqlanadigan shifoxonada suhbatlashganidan buyon oradan yetti yil o'tgan edi. Doktor hanuz ozodlikda, ammo Lekter bilan uchrashuvlarini Starling yodidan zinhor chiqmagan, uning onda-sonda eshitiladigan zanglagan metalning g'ichirlashiga o'xshash ovozi hamon tushlarida jarang sochardi" [Harris, 1999; 7]. "Gannibal: yuksalish" romanida esa birdan yarim asr orqaga, 1941-yilga qaytish kuzatiladi. Aynan o'sha yili yoz faslida Gitler Germaniyasi "Barbarossa" harbiy operatsiyasi doirasida sobiq SSSR hududiga bostirib kiradi va o'sha paytda uning tarkibiga kirgan Litvani bosib oladi [Lafasov, 2010; 19]. Litvadagi eng obro'li xonadonlardan birining farzandi Gannibal Lekter bu paytda sakkiz yoshda bo'ladi va roman so'ngiga borib, yigirma to'rt-yigirma besh yoshlardagi navqiron yigit sifatida gavdalanadi.

Tetralogiyada turli qahramonlar tomonidan o'tmishni eslash holatlari ko'p uchraydi. Yozuvchi T.Harris to'rtta romanni alohida boblarga ajratgan holda taqdim etadi va ko'pincha bir bob voqealari ketma-ket keyingi bobda emas, balki aralash tartibda beriladi. Bundan ayni bir zamonda asardagi makonlarda har bir qahramon bilan kechayotgan hodisalar uzviyligini ta'minlash va voqealar silsilasining yaxlit tasavvurini saqlash maqsadi ko'zda tutilgan. Romanlarda bir-biridan unchalik uzoq bo'lmagan quyidagi zamon-makonlar tasvirlangan: 1) Gitler Germaniyasining Litvaga bosqini va Lekterlar xonadonining zavoli; 2) Gannibal Lekterning Parijda o'tgan o'spirinlik va yigitlik yillari, ilk qotilliklari; 3) Lekterning AQSHda ruhshunoslik faoliyatini boshlashi va obro' qozonishi; 4) Lekterning Uill Grexem tomonidan qo'lga olinishi va "Tish parisi"ni tutishda yordam ko'rsatishi; 5) Kleris Starling va Lekter uchrashuvi hamda uning qamoqdan qochishi; 6) Starlingning ishdan bo'shashi va Lekter bilan ketishi. Ushbu zamon-makonlar badiiy matn tarkibida o'zaro uyg'unlashib, romanlardagi yetakchi badiiy tamoyillarni oydinlashtirishga sharoit yaratadi. Yirik miqyosli voqealarga boy romanlarning badiiy hududida 1938-yildan to 1990-yillarning oxirigacha bo'lgan davr tasvirlanadi. Yozuvchi ba'zida kunlar va oylar ichida nimalar ro'y berganini batafsil ifodalasa, ba'zi hollarda besh-olti yillik hodisalarni bir jumlagi sig'dirib ketishni lozim topadi. Bunda, albatta, qalamga olinayotgan hodisaning syujetda kasb etuvchi ahamiyatidan kelib chiqadi. Jahon romanchiligida bunday sekinlashish va sakrab ketishlar ko'p uchraydi. Chunonchi, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida zamon bobida sakrashlar kuzatilsa [Diler, 2015;

494], “Uliss”da nihoyatda sekinlashish holati kuzatiladi [Anyfanti, 1992; 2]. Hayotni juda uzoq muddat mobaynida yoxud to‘xtovsiz ravishda tasvirlab bo‘lmaydi. Bu cheksizlikka olib keladi va badiiy zamonni ixchamlashtirishdan boshqa iloj yo‘qligini anglatadi. Badiiy zamon oqimi yozuvchining xohishidan kelib chiqib, sekinlashtirilishi, siqilashirilishi, ixchamlashtirilishi yo bo‘lmasa to‘xtashi mumkin. Qozoqboy Yo‘ldoshev va Muhayyo Yo‘ldoshlarning “Badiiy tahlil asoslari” kitobida adabiy zamon va makonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ushbu ikki unurning asarda alohida qism shaklida uzuk-uzuk holatda namoyon bo‘lishini keltirib o‘tishadi. Bular fanda diskretik zamon va diskretik makon, deb ataladi. Ayniqsa, badiiy vaqtga nisbatan ushbu atamani qo‘llash ahamiyatlidir, chunki muallifning umri abadiy emas, va badiiy asarda u o‘zi ko‘rayotgan va guvohi bo‘layotgan oqimni boshdan-oyoq tasvirlab berishga ojizlik qiladi [Yo‘ldoshev & Yo‘ldosh, 2016; 137]. Yozuvchi badiiy asarida zamonaviy yaxlitlikni butunligicha tasvirlay olmaydi, askincha, o‘zining badiiy niyatini ro‘yobga chiqarishda naf keltiruvchi bir qisminigina tasvirga kiritadi, o‘rtadagi davriy bo‘shliqni esa “o‘sha vaqtda”, “shu yili”, “o‘sha kun”, “o‘sha zahoti” va hokazo iboralar bilan to‘ldirib ketadi. “Bunday zamoniy diskretlik”, deb yozadi Q.Yo‘ldoshev, “avvalo asar syujetini, shuning natijasi o‘laroq, tasvir psixologizmi dinamikasini ta‘minlash omilidir” [Yo‘ldoshev & Yo‘ldosh, 2016; 137]. Badiiy asarda tasvirlanayotgan mikroolam xotima topishi uchun badiiy zamon bilan bir qatorda badiiy makonga ham alohida e‘tibor qaratilib, bo‘laklangan badiiy zamonga muvofiq kelishi ta‘minlanadi. Badiiy makon asarning tasvir usuliga monand ravishda noaniq va aniq turlarga ajratiladi. Aniq badiiy makon tasvir olamining ma‘lum bir geografik hududga bog‘liqligida, shuningdek, mazkur makonga xos boshqa xususiyatlarning ham mavjudligida namoyon bo‘ladi [Panasenko, 2012; 71]. T.Harrisning romanlarida adabiy makon aniq tasvirlanadi hamda tasvir mazkaridagi makonlarga xos xususiyatlar ham qo‘shimcha qilinadi. Badiiy makonning aniq yoki noaniq bo‘lishi ba‘zan badiiy zamonning ham xuddi shu turlardan qay biriga mansubligini ifodalashi mumkin. Makon yoki zamon noma‘lum bo‘lgan asarda mavhumot kuchayadi va o‘quvchida xira tasavvur paydo bo‘ladi. T.Harris tetralogiyasidagi makonlar tasvirining aniqligi va haqiqiyliги badiiy zamonning ham ravshan bo‘lishini ta‘minlaydi, chunki detektiv va triller janriga mansub romanlarda aniqlik mezoni muhim ahamiyat kasb etadi [To‘ychiyev, 2011; 191]. Nasr tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarning dastlabki ikkitasi nasriylik va tasviriylık bo‘lsa, uchinchisi aniqlikdir. Aniqlik romanda ikki usul orqali namoyish etiladi, birinchisi, aniqlik borliq-tashqi dunyo, voqea va qahramon tasvirida, ikkinchidan, tilning so‘z ma‘nosi jihatidan tarkibida [To‘ychiyev, 2011; 185]. Qisqacha qilib aytganda, asarda aniqlik bo‘lishi uchun undagi voqelik tasviri tarixda rostakamiga sodir bo‘lgan hodisotlarga bog‘liqlik kasb etishi lozim, qolaversa, yil, fasl, oy, kun, soat singari aniq vaqt birliklari qayd etilishi ham zaruriyatdir. Badiiy qahramonga xos ruhiy holatlarning biror fasl yoki tabiat o‘zgarishlariga uyqash holda tasvirlash ham shular sirasiga kiradi.

Psixologik triller romanlarda badiiy zamonning shiddatligi uning doirasida yuz berayotgan voqea-hodisalarning qanchalik tig‘iz kechishiga ko‘p jihatdan bog‘liq [Pittard, 2015; 531]. Voqea-hodisalar nafaqat tashqi olamdagi xatti-harakatlarni, balki

qahramonlarning ichki olamida kechayotgan holatlar va hislarni ham anglatadi. Badiiy zamonning tig'izlik darajasi asarda o'rtacha, ortiqcha va siyrak bo'lishi mumkin [Yo'ldoshev & Yo'ldosh, 2016; 138]. T.Harris romanlarida esa badiiy zamon xilma-xil voqealarga haddan tashqari ko'p to'ldirilmaganligi, shu jihatdan o'rtacha darajaga mos kelishi ko'zga tashlanadi. U.Grexem va K.Starling singari tergovga mas'ul qahramonlar aholi orasida notinchlik keltirib chiqarayotgan ashaddiy jinoyatchini uning qurbonlari soni yana bittaga ko'paymasidan burun qo'lga olish ilinjida vaqtdan yutishga, tezroq harakatlanib, shoshayotgandek tuyulsa-da, yozuvchi makon va zamonning shiddatli ravishda o'zgarib, voqealar rivojining tezlashib ketishiga yo'l qo'yishdan cheklanadi, shu bilan birga, ma'lum darajada ruhiy holatlar tasvirini ham qo'shish orqali ortiqcha tezlashishlarning oldini oladi.

Oxirgi ikkita romanida asosiy diqqatni o'zi bilmagan holda Gannibal Lekter obraziga qaratib yuborgan va buni tan olgan T.Harris [Harris, 2021; 12] uning bolalik davri hodisalarini batafsil tasvirlash orqali yovuzlikning o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasligini, insonni atrofdagi muhit, sharoit yovuz qilib qo'yishini, har qanday beshafqat va zolim insonning yuragida sezilar-sezilmas ezgulik shu'lasi ham nur sochib turishini ilgari suradi. Yozuvchining dastlab kitobxon ko'z o'ngida sababni emas, oqibatni ko'rsatishi, ya'ni o'ta og'ir jinoyatlari uchun umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan katta tajriba va chuqur bilimga ega olim, shifokor Gannibal Lekterning o'rta yoshlik davrini tasvirlab, keyin esa bolalik va o'smirlik yillarini aks ettirishi qiziqishni oshirib, badiiy asar ta'sirini kuchaytiradi. T.Harris keyinchalik Jeym Gamga nisbatan o'z mulohazalarini bildirayotganida ham xuddi shu holatga kitobxon e'tiborini qaratadi, ya'ni Klerisga qaratadi "U onasining qornidan jinoyatchi bo'lib tug'ilmagan. Yillar mobaynida tizimli ravishda olib borilgan qiynoqlar hamda berilgan azoblar natijasida shunday odamga aylanib qolgan", deydi [Harris, 2023; 422]. Tetralogiya tarkibidagi romanlarda zamonlararo bog'lanishlarda umumiy bir qolip ko'zga tashlanmaydi, yozuvchi shunchaki vaqt birliklarini qo'llash, tabiat o'zgarishlarini kiritib ketish orqali badiiy zamonni anglatib ketadi. "Qizil ajdarho" romanida adib dastavval aniq yilni bermasa-da, sanani tilga oladi va qahramonlarning portretini yaratish chog'idagina yillarga murojaat qiladi. Bu holat Frensis Dolarhaydning hayot yo'li tasvirlangan boblarda ko'proq oydinlashadi [Harris, 2021]. Shu o'rinda qayd etish lozimki, T.Harris romanlarida salbiy obrazda, ya'ni poraxo'r, jinoyatchi va ashaddiy qotil ko'rinishida gavdalanuvchi qahramonlar to'g'risida gap ketganida, ularning o'tmishini, tarjimaiy holini yoritayotganida ko'proq yillardan foydalanishga e'tibor qaratadi va shuncha yillik yig'ilib qolgan "sabab"lar keltirib chiqargan "oqibat"lar tasviri paytidaginda birdan sekinlashib, batafsil ifodaga o'tib oladi.

Ma'lumki, har qanday janrga mansub adabiy asar bilan bog'liq bo'lgan vaqt quyidagi to'rtta turga ajratib, tahlil qilinadi:

- a) asarning yozib tugallangan va chop etilgan vaqti;
- b) asar voqealari muallif tomonidan so'zlab berilayotgan vaqt;
- d) asar voqealarining yuz berish vaqti;
- e) o'quvchining o'sha asarni mutolaa qilgan vaqti [To'rayeva, 2022; 27].

Mazkur to'rtta vaqt bir-biriga yaqin ham, uzoq ham bo'lishi mumkin. Misol

uchun, Gannibal Lekter turkumiga kiruvchi ilk roman – “Qizil ajdarho” 1981-yilda chop etilgan va unda o‘sha davr uchun yaqin o‘tmish hisoblangan 1970–1980-yillar aks ettiriladi. 1988-yilda nashrdan chiqqan “Qo‘zichoqlar sukunati” romanida ham yozuvchi 5 yil oldingi davrda yuz bergan hodisalarni qalamga oladi. 1999-yilda chop etilgan “Gannibal” romanida 1990–1993-yillar oralig‘idagi davr voqealari tasvirlanadi. Vaholanki, 2006-yilda chop etilgan “Gannibal: yuksalish” buning aksini ko‘rsatadi, ya‘ni asar markazida 1930-50-yillar voqealari yotadi. Biz esa bu asarlarni XXI asrning birinchi choragida o‘qib, tahlil qilib turibmiz. Demak, T.Harris yarim asrlik davr ichida bitta yirik va uchta kichikroq vaqt birliklaridan foydalangan. Har qanday voqea-hodisaning badiiy zamon birliklaridan tashqarida sodir bo‘lmasligini nazarda tutgan holda vaqt unsurlarining romanlarning badiiy maydonida o‘zaro uyg‘unlashib, muayyan bir tarixiy davrning epik manzarasini yuzaga keltirishini e‘tirof etish joiz. Qolaversa, badiiy hududga xos zamon birliklari qahramonlarning ichki qalb dialektikasi, obrazning mazmun-mohiyati, ruhiy-ma‘naviy olamining jihatlarini aniqroq ko‘rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi [To‘rayeva, 2022; 60]. “Gannibal: yuksalish” romanida yozuvchi makon va zamon jihatdan uzviy bog‘liqlikdagi davr va hududni qamrab olish bilan bir qatorda bosh qahramon Gannibal Lekterning qariyb yigirma yillik hayotini 336 betli romanga sig‘diradi. Bunda u yashagan davrdagi ikkilamchi darajali qahramonlarning hayoti, tarjimayi holiga chuqur to‘xtalishdan cheklanib, ishora usuli orqali asardagi makonlarda hukm surgan zamonning ruhini, insonlar kayfiyatini suratlaydi. Shu yerda oldingi romanlar bilan oxirgi roman o‘rtasidagi tafovut ko‘zga tashlangandek bo‘ladi, ya‘ni makon va zamon nuqtayi nazaridan nisbatan kichikroq maydonni egallovchi uchta romanda voqealar bir oy, nari borsa bir necha yilning ichida kechadi. Shu sababli yozuvchi vaqtni tejamasdan hodisalarni aynan haqiqiy hayotdagidek mayda-chuyda tafsilotlarigacha yozib chiqadi, qahramonlarning o‘zlariga xos fe‘l-atvori, ruhiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlari va boshqa fazilatlarini tasvirlab ketishdan qochmaydi va o‘quvchini zeriktirmasdan, shiddatni ham saqlab qola oladi [Rzepka & Horsley, 2010; 487]. Holbuki, to‘rtinchi romandan o‘rin olgan boblar orasidagi xronotopik farqlar yozuvchining endilikda ushbu an‘anaga qarshi chiqqanini ko‘rsatadi. Romandagi voqealar rivojining chizig‘i ham tamomila Lekter tomonga ko‘chib, badiiy asarning mag‘zini tashkil etuvchi vaziyatlar uning hayotiga qiyosan ochib beriladi.

Badiiy zamonni ifoda etishda yozuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yil va sanalarga, shuningdek, mantiqiy hisob-kitob natijasida ishlab chiqilgan ishoralarga ham suyanadi, ya‘ni o‘zi suratlamochi bo‘layotgan zamonni boshqa bir vaqt yoki voqeaga ishora qilish orqali ko‘rsatish yo‘lidan boradi. Bunday usul detektiv adabiyotda ko‘p uchraydi [Pittard, 2019; 239] va o‘quvchining romandagi turfa xil zamon bo‘laklarini uzviylikda tasavvur qilish imkoniyatini yo‘qqa chiqarmaydi, aksincha, uni zamonlarni bir-biriga qiyoslab, fikrlashga undaydi. Real vaqtning ishora yordamida bayon etilishiga misol sifatida Gannibal Lekterning tug‘ilgan vaqtiga emas, voqealarning keyingi rivojini belgilab beruvchi voqea – oilasi bilan o‘rmonda fashistlar hujumidan berkinib yashashlari va ularning barchasidan ayrilishiga e‘tiborni qaratishini e‘tirof etish mumkin. Birinchi bob boshida “Lekterlar sulolasining sakkizinchi avlodi, sakkiz

yashar Gannibal Lekter singilchasi Misha bilan oshxona sirtidagi bog‘da turgancha suv to‘ldirilgan xandaqning qoramtir tusga kirgan suvi yuzasida suzib yurgan oqqushlarga non ushoqlarini tashlash bilan band edi”, so‘nggida “Bu Gitlarning Sharqiy Yevropa orqali yashintezligida Rossiya hududlariga bostirib kirishini ko‘zda tutgan “Barbarossa” operatsiyaning ikkinchi kuni edi”, deyiladi [Harris, 2006]. Tarixdan ma’lumki, 1941-yil 22-iyunda “Barbarossa operatsiyasi” doirasida Germaniya Sovet Ittifoqi hududiga hujum qilgan [Lafasov, 2010; 132]. Romandagi ushbu ikkita ma’lumotga suyanagan holda Lekterlar oilasi qasrni 1941-yil 23-iyunda tark etganliklari va Gannibalning 1933-yilda tug‘ilganligi anglashiladi. Demak, T.Harris Ikkinchi jahon urushi tarixidan boxabar ziyrak kitobxon uchun raqamlarni o‘zaro qiyoslash orqali Gannibal Lekterning tarjimaiy holini to‘liq bilib olishga imkon yaratib bergan. To‘rtinchi bob Lekterlar oilasining Gitlarning sharqiy hududlardagi harbiy harakati davom etgan uch yarim yili mobaynida o‘rmonda yashirilib yashaganliklari bayoni bilan boshlanadi va bundan 1944-yil ekanligi anglashiladi. Yoki “Qizil ajdarho” romanidagi zamonga qilingan ishoraga e’tibor qarataylik: “Frensis onasini faqat bir marta, 1970-yilda, buvisining dafn marosimida ko‘rdi” va “Buvisining vafotidan keyingi o‘tgan to‘qqiz yil davomida Dolarhayd hech bir tirik jonzo‘tga ozor yetkazmadi”, deyiladi [Harris, 2021; 315]. Aynan shu sahifada berilgan ushbu ma’lumotlar orqali Frensisning hayotini, dunyoqarashini tamomila o‘zgartirib yuborgan va vahshiy jinoyatlar qilishga undagan voqeaning qachon ro‘y berganini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi, chunki keyingi sahifada Dolarhaydning “Time” jurnalining muqovasida rassom Uilyam Bleyk yaratgan “Buyuk qizil ajdarho va quyosh nuriga chulg‘angan ayol” suratini ko‘rib qolishi aytiladi. Bundan kelib chiqadiki, unga qurbonliklar qilishi to‘g‘risida “ilohiy chaqiriq” 1979-yilda keladi [Harris, 2021; 316]. Romanda badiiy zamonga xos manzarani gavdalantirishda nafaqat yillar, balki fasllar, oylar, hafta kunlarining alohida o‘rni mavjudligini ko‘pgina misollar vositasida payqash qiyin emas. Fikrimizning yanada yorqinroq va aniqroq ifodasini romanda qo‘llanilgan makro va mikrozonon birliklarining unga uyg‘un voqealar kesimidagi xronologik umumlashmasida ko‘rish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Zamon	Voqea
	Yillar kesimida
1365–1428-yy.	Lekterlar sulolasining asoschisi Gannibal Grim yashab o‘tgan.
1936-yil	Dolarhayd xonimning eri vafot etadi.
1938-yil 14-iyun	Missuri shtatining Springfild shahrida Frensis Dolarhayd tug‘ilgan.
1938-yil	Vladis Grutas bau-xaus uslubida uy qurdirgan.
1939-yil	Parij aholisiga mahkumni gilyotinada qatl etish jarayonini kuzatish taqiqlangan.
1940-yillar	Dolarhayd xonim uyida qariyalarni pravarishlashni yo‘lga qo‘yadi.
1943-yil, dekabr	Frensis Dolarhaydni buvisi bolalar uyidan chiqarib oladi.
1944-45-yillar, qish	Sharqiy front tor-mor etilgach, Rus armiyasi lava singari ortidan kul va tutun qoldirib, Sharqiy Yevropani fashistlardan qaytarib ola boshladi.
1946-yil, Litva	O‘n uch yoshli Gannibal Lekter bolalar uyiga aylantirilgan Lekter qasridan qochib, Parijga keladi.

1947-yil, qish	Dolarhayd xonimning yurish-turishi o'zgara boshlaydi; Frensis buvisning tovug'ini boshini tanasidan judo qiladi.
1948-yil	Jeym Ganga homilador ayol "Sakramento go'zali" tanlovida ishtirok etadi.
1958-yil	Frensis Dolarhayd harbiy xizmat muddatini uzaytiradi.
1959-yil	Frensis Dolarhayd Gongkong va Koulun shaharlarida bo'ladi.
1961-yil	Dolarhayd xonim ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqadi.
1969-yil	Freddi Launds sariq matbuot uchun ishlay boshlaydi.
1970-yil	Dolarhayd xonim vafot etadi.
1975-yil 22-mart	Baltimor Filarmoniyasi orkestri fleyta chaluvchisi Benjamin Raspayl navbatdagi konsertga kelmaydi.
1975-yil 25-mart	Benjamin Raspaylning jasadı Virjiniyadagi cherkov yaqinidan topiladi.
1976-yil 8-iyul	Gannibal Lekter shifoxonada tekshiruv o'tkazayotgan hamshiraga hamla qiladi.
1979-yil	Frensis Dolarhayd o'ziga keyinchalik qotilliklarida foydalangan yasama tish yasattirish va ajdarho tasvirini tanasiga tushirish uchun Gongkongga boradi.
1980-yillar	AQSHda terrorchilik harakatlarining oltin davri.
1980–1990-yy.	"Florensiya maxluqi" o'zining bir qator qotilliklarini amalga oshiradi.

Tadqiqotning mazkur qismida badiiy zamonning ajralmas "egizagi" bo'lgan badiiy makonlarga ham to'xtalib o'tishni lozim topdik. Roman epik janrida badiiy zamon badiiy makonning mavjud bo'lishini ham talab qiladi hamda ushbu ikki unurning o'zaro birlashishi asosida muallif badiiy maydon uchun zarur bo'lgan zaminni hozirlab qo'yadi. Badiiy makon asarda tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va estetik makonlar ko'rinishida yuzaga kelishi mumkin. T.Harris zamon borasida ko'riganidek, makon tasvirida ham mavhumotdan cheklanib, barcha joy va hududlarni aniq ifodalab ketadi, fikrimizning isbotini quyidagi zamon hamda makon birliklarida ko'rish mumkin: "Missuri shtati Springfield shahri, 1938-yil 14-iyun" [Harris, 2021; 280], "1975-yil 22-martda Raspayl Baltimordagi orkestr konsertiga kelmagan va 25-martda uning jasadı Virjiniya shtatidagi Folls-Cherch shahri yaqinidagi kichkina qishloq cherkovining ichidan topilgan" [Harris, 2023; 38], "Litva, 1946-yil" [Harris, 2006; 21]. Ayon bo'lganidek, voqealarda makon aniq hamda realdir, zamon ham ma'lum bir davrni ifoda etadi. Dastlabki ikkita romanda syujet chiziqlaridagi makon qotilliklar ro'y bergan (Atlanta, Birmingem, Ogayo, Detroyt) va tergov olib boruvchi idoralar joylashgan hududlar (Vashington, Chikago, Kvontiko), shuningdek, qamoqxona, shifoxona va mehmonxona singari mikromakonlar bilan bog'lansa, uchinchi va to'rtinchi romandagi makoniy birliklarning aksariyati Gannibal Lekter atrofida kechgan voqealar rivoji bilangina o'zgarib turadi.

T.Harris romanlarni yozish paytida qisqa vaqt oralig'ida makon obyektlarini yuksak darajadagi izchillik bilan taqdim etadiki, o'quvchida yozuvchi haqiqatdan ham ushbu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, degan xulosa ham paydo bo'ladi. Bu, albatta, yozuvchilik mahoratining kengligiga hamda boy materialdan foydalana bilishiga borib taqaluvchi holatdir. Romanlarda nafaqat jismoniy makonlar va joylashuvlar, balki ruhiy makonlar ishtiroki va tasvirining ham mavjudligi T.Harrisning o'z romanlariga psixologik jihatdan ko'proq yondashganini ifodalaydi. Misol uchun, bu uning Gannibal Lekter miyasini ham labirintlarga boy badiiy makon qilib aks ettirishida yaqqol

namoyon bo‘ladi. Uning miyasiga “xotira saroyi” deya nom bergan T.Harris to‘rtinchi romanning muqaddimasida shunday yozadi: “Doktor Gannibal Lekterni miyasidagi xotira saroyining eshigi qorong‘ulik bilan qoplangan, eshik esa qulflig‘liq turibdi, uni faqat paypaslab topish mumkin. Bu eshik ortida yorqin chiroqlar bilan yoritilgan qadimiy barokko uslubidagi ulkan makonlar, yo‘laklar va palatalar shunchalar ko‘pki, ularning soni Topkapi muzeyidagi bo‘lmalardan kam emas” [Harris, 2006; 6]. Uning miyasidagi har bir makonga ehtiyotkorlik bilan saqlangan xotira yoki bilim jo bo‘lgan. Makonning bunday o‘ziga xos tasviri o‘quvchining Hannibal ruhiyatiga nazar tashlashiga va uning o‘z o‘y-xayollari hamda xatti-harakatlari ustidan qanday qilib qat’iy nazorat olib borishiga guvoh bo‘lishiga imkon yaratadi. To‘rtinchi roman nihoyasida T.Harris Gannibalning xotira saroyi qanday tuzilganligini anglash ilinjida Frensis Yeytsning “Xotira san’ati”, Jonatan Spensning “Matteo Richchining xotira saroyi” kabi asarlariga murojaat qilganini, shuningdek, Dantening “Ilohiy komediyasi”ga ham suyananini ko‘rsatib o‘tadi [Hannibal, 2006; 415].

Gannibalning ichki olamidan joy olgan makonlarni tadqiq etish bilan bir qatorda T.Harris romanlar syujetining asosini tashkil etuvchi geografik makonlarni prototiplarga xos tarixiy haqiqatlardan uzoqlashmagan holda tanlaydi va ishtirok ettiradi. “Qizil ajdarho” va “Qo‘zichoqlar sukunati” romanlarida Gannibalning doimiy makoni sifatida Baltimor davlat shifoxonasidagi kamera ko‘rsatilsa, uchinchi va to‘rtinchi romanlarda bu bir xillik umuman kuzatilmaydi. Qamoqdan qochgan seriyali qotil va ruhshunos shifokor yana qo‘lga tushib qolmasligi uchun makonlarini tez-tez o‘zgartirib turishi “Gannibal” romanida kuzatilsa, to‘rtinchi romanda makonlar o‘zgarishiga sabab sifatida uning amakisi tomonidan asrandi o‘g‘il qilib asrab olinishi bilan bog‘liq geografik o‘zgarishlar va kasbiy jihatdan kamol topishga intilishi, eng asosiysi, singlisining va ota-onasining o‘limiga sababchi bo‘lgan shaxslardan qasos olish istagi aks ettiriladi. Asarlarda timsoliy ahamiyatga ega makonlarning uchrashi ham tez-tez kuzatilib, bu qahramonlar qiyofasi hamda voqea-hodisalarga murakkablik bag‘ishlaydi. Jumladan, sohil bo‘yidagi yolg‘iz uy chasi U.Grexem uchun qorong‘ulikdan qochib yashirinadigan va panoh topadigan boshpana vazifasini o‘taydi, bir vaqtning o‘zida qotil onggi bilan aloqasini ham ifodalaydi. K.Starlingning ham dunyo tashvishlari-yu g‘ala-g‘ovurlaridan berkinib, jinoyat ishi haqidagi ma’lumotlar ustida diqqatini jamlagan holda ishlay oladigan makoni bor, bu – akademiya yotoqxonasi kir yuvish xonasi. U keyinchalik yotoqxonadan o‘zining shaxsiy uyiga ko‘chib o‘tganida ham kir yuvish xonasini o‘zining halovat joyi deb biladi. Buning sababi esa “Qo‘zichoqlar sukunati” romanining nihoyasidagi quyidagi parcha orqali o‘z ifodasini topadi: “Starling iliqqina kir yuvish xonasida kir mashinasining bir tekisdagi guvillashi ostida uxlab qolgandi. Xonani kir yuvish kukuni, sovun va oqartiruvchi vositaning hidi tutib ketgandi. Starling oldin psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘qigan, Meppning birinchi mutaxassisligi esa huquqshunoslik bo‘lsa-da, kir mashinasining ritmik guvillashi kuchli yurak urishini eslatishini, ichidagi suvning shovullab oqishi esa ona qornidagi bolaga eshitiluvchi tovush ekanligini Mepp fahmlab yetgandi. Bular aslida to‘laqonli halovat va tinchlik davridan yodgor bo‘lib qolgan eng so‘nggi xotiralarimizdir” [Harris, 2023; 416]. K.Starling aynan o‘sha makonda

fikrlarini jamlay oladi va ruhiy barqarorlikka erishadi. Jeym Gamni qo‘lga olganidan so‘ng oradan yetti yil o‘tib, giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi jinoyatchi Evelda Dramgoni otib o‘ldirgan va qadrdon hamkasi Jon Brigemning o‘limiga guvoh bo‘lgan paytida [Harris, 1999; 14] ham u qattiq tushkunlik holatini boshidan kechirib, uyidagi kir yuvish xonasida chiroqlarni o‘chirgancha o‘ziga halovat izlaydi. Bu kabi timsoliy makonlarning qo‘llanilishi hikoya yo‘sinini boyitib, o‘quvchini teranroq tahlil qilishga undaydi.

Badiiy asarlardagi real makonlar va mikromakonlarni tasvirlashda T.Harrisning yetakchi badiiy g‘oyalari o‘rtaga chiqishi bilan bir qatorda tabiat tasviri va unga uyqash ravishda qahramon tiynati ham mujassamlashadi. U ko‘pincha turli makonlarning yorqin tasvirini taqdim etish orqali asar kayfiyatiga monand jumboqli va shubhalarga to‘la muhitni yaratishni maqsad qiladi. Bunday tasvirlar sirasiga ob-havo tafsilotlari, voqea joylarining umumiy manzarasiga hissa qo‘shuvchi tabiat ko‘rinishlari yoki landshaftlarni kiritish mumkin. Inson tiynati, ruhiy olamining borliqning xususiyatlari, tabiatga chambarchas bog‘liqligi haqidagi fikr asosli ekanligini quyidagi jadval orqali ishonch hosil qilish mumkin (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Tabiat tasviri	Voqea
Chikagoda sahar payti bo‘lsa-da, havo dim va osmonning avzoyi buzuvchi edi [Harris, 2021; 254]	Frensis Dolarhayd sravachaga mahkamlangan Laundsning ustiga benzin quyib, yoqib yuboradi.
Ertalab iliq va nam shamol esib, Dolarhaydning uyi o‘rnidagi yakkam-dukkam ustunlar va xarobalar ustida to‘plangan quyuv tumanni atrofdagi dalalar uzra yupqa qatlamlarga bo‘lib haydadi [Harris, 2021; 463]	Fosh bo‘lganini sezgan Frensis Dolarhayd o‘zining o‘limini sahnalashtirib, uyini portlatadi va o‘t qo‘yadi.
Tuni bilan yog‘ib chiqqan yomg‘ir Freddi Laundsning ochiq qabri ustiga yopilgan bostirmaning shalabbo qildi. Momaqaldiraq ovozdin Grexemning boshida og‘riq turib, o‘rniga yotdi. Bu paytda Sent-Charlzidagi eski uy ham shiddatli shamol, tinimsiz yog‘ayotgan yomg‘ir va momaqaldiraqqa yelka tutib turardi [Harris, 2021; 308]	Frensis Dolarhayd oilaviy filmlarni tomosha qilib, navbatdagi qurbonlarini tanlaydi.
Jazirama fransuz yozining eng qizg‘in pallasi, Eson daryosi yuzasini quyuv tuman qoplagan, o‘rdaklar qamishlar orasida suzishardi. Gannibal gapirmasa-da, uning yuzidan uyqusida tush ko‘rmaganligi va o‘n uch yashar o‘g‘il bolaning kuchayib borayotgan ishtahasi ayon edi [Harris, 2006; 66]	Parijdagi amakisining xonadoniga kelgan Gannibal Lekter yangi makonga, yangi odamlarga ko‘nika boshlaydi.
Barq urib gullayotgan Vogeov maydonidagi daraxtlardan taralayotgan ifor bahorning tungi go‘zalligini o‘zida aks ettirardi [Harris, 2006; 124].	O‘n sakkiz yoshli Gannibal Lekterning o‘qishdagi muvaffaqiyatlari Murasaki xonim tomonidan e‘tirof etiladi.

Jigarrang tusdagi loyqa suv yuzasida qattiq esgan shamol ta'sirida uchib kelgan kabutar parlari suzib yurar, shamol shu bilan cheklanib qolmasdan, ularni chayqalayotgan suvda ham ta'qib etishda davom etardi... Kleris Starling Frederikaning orqa hovlisiga o'tib, qo'llarini paltosining cho'ntaklariga solgancha suv yuzasidagi parlarga tikilib ancha turdi. Iliq kelgan qishning tiniq va musaffo osmoni ostida qamishzor ustidagi yakkam-dukkam qor nishonalari loy aralash kulrang tusda gavdalanardi [Harris, 2023; 362]	Starling Jeym Gamning qurbonlaridan biri bo'lgan Frederika Bimmelning yashash tarzini, oilasi bilan munosabati va boshqa tafsilotlarni bilish uchun uning uyiga boradi, o'ziga kerakli dalillarni topib, tergov ishida siljishga erishadi.
--	--

Psixologik triller janrida ijod qilgan bo'lishiga qaramasdan, T.Harrisning tarixiy voqea va shaxslar ishtirokidan ko'p o'rinlarda foydalanganligi hamda qahramonlar taqdirida ularning muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli maqolada urush xronotopiga to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq, deb topdik. T.Harris romanlaridagi urush mavzusi tilga olingan o'rinlar ta'sirdorlik badiiy mezonining hayot haqiqati va badiiy haqiqat maromi orqali tahlil qilinib, badiiy to'qimaning tarix haqiqatiga ta'siri faqat ijobiy natija keltirganligi aniqlandi. Qahramonlarning taqdiri va ruhiy kechinmalari katta va kichik, mahalliy va jahon urushlari bilan bog'langan holda aks ettirilgan sahnalar romanlarda bir talay. Jumladan, "Qizil ajdarho" romanining nihoyasida kasalxonada yotgan Uillning tushiga 1861–1865-yillarda bo'lib o'tgan Amerika fuqarolar urushining [Rata, 2015; 111] eng qonli janglaridan biri bo'lib o'tgan joy – "Shaylo" ko'li kiradi [Harris, 2021; 493]. Ba'zi manbalarda Shimol va Janub armiyalari o'rtasida 1862-yilda sodir bo'lgan ushbu to'qnashuvda halok bo'lganlar soni shu darajada ko'p bo'lganligi uchun ko'ldagi suv tusi o'zgarib, qirmizi rangga kirgan, "Qonli ko'l" atamasi shundan paydo bo'lgan, degan qarashlar ilgari suriladi [Madison, 2003; 198]. Grexem ham o'zi (Xobbs va Frensis Dolarhaydni otib o'ldirishi) va boshqalar to'kkan qonlar (Lidslar va Jeykobilar oilasining o'ldirilishi) haqidagi xotiralaridan mutaassir bo'lib, o'sha ko'l bo'yidagi xotirani eslashi orqali yuz yillar oldingi qirg'inbarot urushlarni unutishning ilojisizligi bugungi kunning achchiq haqiqatlariga ham muvofiq kelishini, ko'rgan-kechirganlarini batamom unutish ilojisiz ekanligini isbotlaydi. 1950-yillar Koreya tarixida notinchliklar bilan muhrlanib qolgan va T.Harris tarixiy va badiiy xronotopning mos kelishidan unumli foydalanib, Dolarhaydning tarjimayi holiga Koreyani ikkiga bo'lgan o'ttiz sakkizinchi parallel chizig'i ustidan o'tgan samolyotlar suratga olgan videoyozuvlarni qayta ishlash bandini qo'shadi [Harris, 2021; 314]. Xuddi shu urushda Jek Kroufordning harbiy askar sifatidagi ishtiroki tasviri "Qo'zichoqlar sukunati"da bir necha so'zlargagina jo bo'lgan bo'lsa-da [Harris, 2023; 212], urush xotiralarini uning yodida qolganligiga o'quvchida shubha tug'dirmaydi. Aytish joizki, "Qo'zichoqlar sukunati" va "Gannibal"da davlatlar o'rtasidagi urush mavzusiga qisman (Koreya, Vyetnamdagi urushlar) murojaat qilinsa-da, ko'lamli torayib, shaxslararo kurash tusiga ko'chadi. Qahramonlar haqiqatning qaror topishi, mansab, boylik va o'tmishdagi og'riqlar uchun qasos olish maqsadida ayovsiz jang-u jadalga tortiladi. Aynan to'rtinchi roman – "Gannibal: yuksalish" orqali T.Harris urush davrining insonlar qalbiga solgan dahshati va qo'rquvi, ayriqliq va yetimlik azobi-yu urush jinoyatlarini ro'yi-rost aks ettiradi. Asarning ilk bobida XIV asr ikkinchi yarmi – XV asr boshida yashab o'tgan

Gannibal Grimning Gryunvald jangidagi harbiy asirlarni ishga solib, Lekter saroyini qurdirgani qayd etiladi [Harris, 1999; 5]. Ushbu jang 1410-yil Tevton ordeni va Litva knyazligi o'rtasida bo'lib o'tganligi va ordenning ko'plab ritsarlari asirga olingani haqidagi ma'lumot tarixiy manbalarda batafsil keltirilgan [Frost, 2015; 104]. Ushbu sulolaning sakkizinchi avlodi bo'lmish Gannibal Lekter qariyb besh yuz yildan so'ng dunyoga keladi, fashistlar yurish boshlaganida sakkiz yoshda bo'ladi. Romanning asosiy qahramoni Lekter taqdiri bilan bog'liq hodisalarning aynan Ikkinchi jahon urushi bilan boshlanishida ham muayyan ma'no mujassam.

XULOSA

T.Harris o'z tetralogiyasi uchun moziyning aniq bir davrini va makonni manba sifatida tanlab olar ekan, bunda muayyan bir dunyoqarash, fasafa ehtiyoji va talablariga asoslangan. "Gannibal Lekter" tetralogiyasining yozilish tartibida umumiy retrospeksiya hodisasi kuzatilsa ham, ya'ni dastlabki romanlar bo'lmish "Qizil ajdarho" va "Qo'zichoqlar sukunati" markazida turuvchi qahramon Gannibal Lekterning yoshlik yillari, uning ushbu ikki romandagi xatti-harakatlarini keltirib chiqargan bolalik kechinmalari to'rtinchi romanda aks etsa ham, alohida olingan holatda har bir romanda voqealar ketma-ketligida uzviylik va izchillikka qat'iy amal qilinadi, bunda badiiy zamon xronologik, ya'ni izchil-davomiy xususiyatga ega. Barcha romanlardagi voqealar oldinma-keyin tasvir etib boriladi, vaqt oqimi va qahramonlar hayoti uzviy ravishda ifoda qilinadi. Zarurat tug'ilgandagina retrospektiv tasvirdan foydalaniladi: yozuvchi yoki biror personaj tilidan avvalgi zamonga oid voqea hikoya qilib beriladi. Oxirgi roman – "Gannibal: yuksalish"ga kelganda yaxlit retrospeksiya holati kuzatiladi, ya'ni bosh qahramon Gannibal Lekterning hayoti ayni zamondan yarim asr orqaga qaytiladi. Badiiy zamonni ifoda etishda T.Harris to'g'ridan-to'g'ri yil va sanalarga, shu bilan birga, mantiqiy hisob-kitob natijasida ishlab chiqilgan ishoralarga suyanadi, ya'ni o'zi suratlamochi bo'layotgan zamonni boshqa bir vaqt yoki voqeaga ishora qilish orqali ko'rsatib beradi. O'z ichiga 1941–1993-yillar oralig'idagi voqea-hodisalarni qamrab olgan tetralogiyadagi voqealarning geografik ko'lamini Shimoliy va Janubiy Amerika (AQSH, Yamayka, Argentina), G'arbiy va Sharqiy Yevropa (Fransiya, Italiya, Litva), Sharqiy Osiyo (Janubiy Koreya, Gongkong) gacha borib taqaladi.

T.Harrisning badiiy haqiqatni yuzaga keltirish yo'lida tarixiy haqiqat doirasidan chiqmasdan, qahramonlarini o'sha davrda yuz bergan yirik siyosiy hodisalarning ishtirokchisi yoki hech bo'lmaganda, o'sha davrda yashab ko'rganligini ta'sirli va asosli ravishda ko'rsatib bera olganligi uning ijodkorlik mahorati qay darajada yuqori ekanligini bildiradi. Trillerlarda urush, qamoqxona, tush xronotopiga murojaat qilinishi, romanlarga XV asr boshlaridan XX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrdagi bir nechta tarixiy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga molik urushlarning asosli tarzda singdirilishi ularning insonlar taqdirida qoldirgan og'riqli xotiralarini yana bir bor eslashga, his qilishga undaydi va, albatta, qahramonlarning ruhiyatida qoldirgan izlarini jonli tasvirlashda muhim o'rin tutadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bakhtin, M. (1986). *Literaturno-kriticheskiye stat'i*. Moskva: Khudozhestvennaya literatura.
2. Baxtin, M. (2015). *Romanda zamon va xronotop shakllari*. Toshkent: Akademnashr.
3. Bemong, N., Borghart, P., Dobbeleer, M. (2010). *Bakhtin's theory of the literary chronotope: Reflections, applications, perspectives*. Belgium: Academia Press.
4. Diler, H. E. (2015). Gabriel García Márquez's One Hundred Years of Solitude as a grotesque magical realist text. *International Journal of Social Sciences and Education Research*, 1(2), 489–496. <https://doi.org/10.24289/ijsser.106442>.
5. Frost, R. (2015). *The Oxford history of Poland-Lithuania: The making of the Polish-Lithuanian union 1385–1569* (Vol. 1). Oxford: Oxford University Press.
6. Gey, N. (1967). *Iskusstvo slova: o khudozhestvennosti literatury*. Moskva: Nauka.
7. Harris, T. (1999). *Hannibal*. New York: Delacorte Press.
8. Harris, T. (2006). *Hannibal Rising*. New York: Delacorte Press.
9. Harris, T. (2021). *Qizil ajdarho*. Toshkent: “Zukko kitobxon” nashriyoti.
10. Harris, T. (2023). *Qo'zichoqlar sukunati*. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
11. Holquist, M. (2010). The Fugue of Chronotope. In N.Bemong, P.Borghart, M.Dobbeleer (Eds.), *Bakhtin's Theory of the Literary Chronotope: Reflections, Applications, Perspectives* (pp. 19–34). Belgium: Academia Press.
12. Karim, B. (2016). *Ruhiyat alifbosi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
13. Kaschmitter, H. (1999). *Obstacle or opportunity: Journeys in the Odyssey*. Bellingham: Western Washington University.
14. Lafasov, M. (2010). *Jahon tarixi (1918–2008)*. Toshkent: “Turon-iqbol” nashriyoti.
15. Madison, J.H. (2003). Civil War memories and partnership forgittin 1865–1913. *Indiana Magazine of History*, 99(3), 198–230.
16. Messent, P. (2004). American Gothic: Liminality in Thomas Harris's Hannibal Lecter novels. *Journal of American & Comparative Cultures*, 23(4), 23–35.
17. Nosirov, A. (1999). Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini (“Yulduzli tunlar” romani misolida). *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
18. Panasenko, N. (2012, February). Interrelations between Literary Time and Space in Prosaic Texts. Conference on *Language, Literature and Culture in a Changing Transatlantic World* (pp. 69–82). Slovakia: Prešov Institute of British and American Studies.
19. Pittard, C. (2019). Grant Allen's “Jerry Stokes”: Detective Fiction, the Death Penalty, and the Scene of Writing. *Victorian Periodicals Review*, 52(2), 235–254.
20. Pittard, C.A. (2009). We are seeing the past through the wrong end of the telescope: time, space and psychogeography in Castle Dor. *Women: A Cultural Review*, 20(1), 57–73. <https://doi.org/10.1080/09574040802684830>.
21. Pittard, C.A. (2010). Contemporary British Fiction and the Artistry of Space: Style, Landscape, Perception. *Style*, 44(3), 455–460.
22. Pittard, C.A. (2015). Psychological thrillers. In W.Hughes, D.Punter, & A.Smith (Eds.), *The Encyclopaedia of the Gothic* (pp. 531–533). New Jersey: Wiley-Blackwell.
23. Radding, J. (2015). Clytemnestra at Aulis: Euripides and the Reconsideration of Tradition. *Greek, Roman, and Byzantine Studies*, 55, 832–862.
24. Rata, I. (2015). The role of intertextuality in Neil Gaiman's American Gods. *Cultural Intertexts*, 3, 106–115.
25. Rata, I. (2016). The importance of space and time in Neil Gaiman's novels. *Cultural Intertexts*, 3, 102–113.
26. Rzepka, Ch., & Horsley, L. (2010). *A companion to crime fiction*. New Jersey: Wiley-Blackwell.
27. To'rayeva, B. (2018). Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi (O.Yoqubov va P.Qodirov romanlari misolida). *Filol. fan. fal. dok. diss.* Toshkent.

28. To‘rayeva, B. (2019). Retrospective forms of literary time in the works of Chingiz Aitmatov. *Theoretical & Applied Science*, 77(09), 459–465.
29. To‘rayeva, B. (2022). Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlari misolida). *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent.
30. To‘ychiyev, U. (2011). *O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari*. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
31. Umarova, M. (2011). Tarixiy dramada badiiy vaqt konsepsiyasi (Shekspir va Fitrat dramalari misolida). *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
32. Yo‘ldoshev, Q., & Yo‘ldosh, M. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent: “Kamalak” nashriyoti.

REFERENCES

1. Bakhtin, M. (1986). *Literary critical articles*. Moscow: Fiction.
2. Bakhtin, M. (2015). *Forms of time and chronotope in the novel*. Tashkent: Academic Publishing House.
3. Bemong, N., Borghart, P., Dobbeleer, M. (2010). *Bakhtin’s theory of the literary chronotope: Reflections, applications, perspectives*. Belgium: Academia Press.
4. Diler, H. E. (2015). Gabriel García Márquez’s One Hundred Years of Solitude as a grotesque magical realist text. *International Journal of Social Sciences and Education Research*, 1(2), 489–496. <https://doi.org/10.24289/ijsser.106442>.
5. Frost, R. (2015). *The Oxford history of Poland-Lithuania: The making of the Polish-Lithuanian union 1385–1569* (Vol. 1). Oxford: Oxford University Press.
6. Gay, N. (1967). *The art of words: Fiction*. Moscow: Science.
7. Harris, T. (1999). *Hannibal*. New York: Delacorte Press.
8. Harris, T. (2006). *Hannibal Rising*. New York: Delacorte Press.
9. Harris, T. (2021). *Red dragon*. Tashkent: Publishing House of ‘Genius Bookworm’.
10. Harris, T. (2023). *The silence of the lambs*. Tashkent: Publishing House of ‘New Age Generation’.
11. Holquist, M. (2010). The Fugue of Chronotope. In N.Bemong, P.Borghart, M.Dobbeleer (Eds.), *Bakhtin’s Theory of the Literary Chronotope: Reflections, Applications, Perspectives* (pp. 19–34). Belgium: Academia Press.
12. Karim, B. (2016). *The alphabet of the soul*. Tashkent: Publishing House named after Gafur Ghulam.
13. Kaschmitter, H. (1999). *Obstacle or opportunity: Journeys in the Odyssey*. Bellingham: Western Washington University.
14. Lafasov, M. (2010). *World history (1918–2008)*. Tashkent: Publishing House of ‘Turon-Ikbal’.
15. Madison, J.H. (2003). Civil War memories and partnership forgittin 1865–1913. *Indiana Magazine of History*, 99(3), 198–230.
16. Messent, P. (2004). American Gothic: Liminality in Thomas Harris’s Hannibal Lecter novels. *Journal of American & Comparative Cultures*, 23(4), 23–35.
17. Nosirov, A. (1999). Historical truth and its artistic interpretation (in the example of the novel ‘Starry Nights’). *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent.
18. Panasenkov, N. (2012, February). Interrelations between Literary Time and Space in Prosaic Texts. Conference on *Language, Literature and Culture in a Changing Transatlantic World* (pp. 69–82). Slovakia: Prešov Institute of British and American Studies.
19. Pittard, C. (2019). Grant Allen’s “Jerry Stokes”: Detective Fiction, the Death Penalty, and the Scene of Writing. *Victorian Periodicals Review*, 52(2), 235–254.
20. Pittard, C.A. (2009). We are seeing the past through the wrong end of the telescope: time, space and psychogeography in Castle Dor. *Women: A Cultural Review*, 20(1), 57–73. <https://doi.org/10.1080/09574040802684830>.
21. Pittard, C.A. (2010). Contemporary British Fiction and the Artistry of Space: Style, Landscape, Perception. *Style*, 44(3), 455–460.

22. Pittard, C.A. (2015). Psychological thrillers. In W.Hughes, D.Punter, & A.Smith (Eds.), *The Encyclopaedia of the Gothic* (pp. 531–533). New Jersey: Wiley-Blackwell.
23. Radding, J. (2015). Clytemnestra at Aulis: Euripides and the Reconsideration of Tradition. *Greek, Roman, and Byzantine Studies*, 55, 832–862.
24. Rata, I. (2015). The role of intertextuality in Neil Gaiman's American Gods. *Cultural Intertexts*, 3, 106–115.
25. Rata, I. (2016). The importance of space and time in Neil Gaiman's novels. *Cultural Intertexts*, 3, 102–113.
26. Rzepka, Ch., & Horsley, L. (2010). *A companion to crime fiction*. New Jersey: Wiley-Blackwell.
27. Turayeva, B. (2018). The problem of artistic time in historical novels (on the example of novels by O.Yokubov and P.Kadirov). *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
28. Turayeva, B. (2019). Retrospective forms of literary time in the works of Chingiz Aitmatov. *Theoretical & Applied Science*, 77(09), 459–465.
29. Turayeva, B. (2022). Comparative-typological study of chronotope poetics in modern novels (on the example of the novels of Ch.Aitmatov and N.Norkobilov). *DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
30. Tuychiyev, U. (2011). Criteria of artistry in Uzbek literature and their virtues. Tashkent: Publishing House of 'New Age Generation'.
31. Umarova, M. (2011). The concept of artistic time in historical drama (as an example of Shakespeare and Fitrat dramas). *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent.
32. Yuldashev, K., & Yuldash, M. (2016). *Fundamentals of artistic analysis*. Tashkent: Publishing House of 'Rainbow'.